



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий
педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Nilufar Djurayeva SOVET HOKIMIYATINING IJTIMOIIY - IQTISODIY SIYOSATIDA XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING MAQSAD-VAZIFALARI.....	5
2. Gul dona Taniyeva O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMIDAGI O'ZIGA XOSLIK: O'TMISH VA BUGUN.....	15
3. Hikmatjon Avezov O'ZBEKISTONNING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI BILAN ATROF-MUHIT HIMOYASI SOHASIDAGI HAMKORLIK TARIXI.....	20
4. Iskandar Samadov XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASI (XXSR)DA YER-SUV MASALASI VA PAXTACHILIKNING QAYTA TIKLANISHI.....	27
5. Фируза Абдюсупова В ПОИСКАХ НЕИЗВЕДАННОГО: РУССКИЕ ЭКСПЕДИЦИИ И РАЗВЕДЫВАТЕЛЬНЫЕ ПОХОДЫ В ПАМИРЕ (XIX ВЕК).....	34
6. Nasiba Narzullayeva SOVET DAVLATI SIYOSATIDA XORIJDA TA'LIM OLGAN O'ZBEK XOTIN- QIZLARINING QATAG'ON QILINISHI.....	41
7. Istora Jo'rayeva XOTIN-QIZLAR MAVZUSINING YORITILISHIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	50
8. Muslima Makhmudovna Bazarova THE ACTIVITY OF SHELTERS IN UZBEKISTAN.....	55
9. Diyora Chorshanbiyeva YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINING SHAKLLANISHI.....	60
10. G'unchaxon Baxodirovna Alimova O'ZBEKISTONDA DINIY TA'LIM OLIISH SOHASI YO'NALISHLARI VA UNING S IFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR.....	65
11. Mohira Matnazarova KO'CHMANCHI CHORVADORLAR HAYOTINING YOZMA MANBALARDAGI INTERPRETATSIYASI.....	71
12. Iroda Tishabayeva 1950–1970 YILLARDA O'ZBEKISTON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR OVQATLANISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI.....	76



G'unchaxon Baxodirovna Alimova,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: alimovag'uncha@gmail.com

O'ZBEKISTONDA DINIY TA'LIM OLIISH SOHASI YO'NALISHLARI VA UNING SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR

For citation: Gunchakhon B. Alimova. DIRECTIONS IN THE SECTOR OF RELIGIOUS EDUCATION IN UZBEKISTAN AND REFORMS AIMED AT IMPROVING ITS QUALITY. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 6, pp.65-70

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15806101>

ANNOTATSIYA

O'zbekiston musulmonlari idorasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita muassisligidagi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida Qur'on ilmlari, hadis, islom huquqi, aqida, tasavvuf, islom iqtisodiyoti va moliyasi, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar va boshqa xalqaro miqyosda ehtiyoj mavjud bo'lgan sohalar bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlashga o'rta maxsus, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish bosqichlarida uzluksiz ta'limning yaxlit tizimini tashkil etishga, ilmiy merosni chuquq tadqiq qilish, asrab-avaylashga, diniy va dunyoviy bilim berishga ixtisoslashgan yetakchi ta'lim ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

Ushbu maqolada O'zbekistonda diniy ta'lim olish sohasi yo'nalishlari va ularning sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar, ilmiy-tadqiqot tamoyillari, islom dini tarixi, falsafasi, uning jamiyat hayoti va rivojidadagi o'rni bilan bog'liq masalalarni hamda zamonaviy fanlarni chuqur o'zlashtirgan, davlat va jamoat tashkilotlari, diniy muassasalar oldidagi nazariy va amaliy vazifalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Musulmonlari idorasi, diniy ta'lim, madrasa, ta'lim muassasalari.

Гунчакхон Баходировна Алимова,
Ургенчский государственный университет,
самостоятельный исследователь
e-mail: alimovag'uncha@gmail.com

НАПРАВЛЕНИЯ В СЕКТОРЕ РЕЛИГИОЗНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И РЕФОРМЫ, НАЦЕЛЕННЫЕ НА ПОВЫШЕНИЕ ЕГО КАЧЕСТВА

АННОТАЦИЯ

Международная исламская академия Узбекистана, созданная Управлением мусульман Узбекистана и Комитетом по делам религий при Кабинете Министров Республики Узбекистан, является ведущим образовательным и научно-исследовательским учреждением,

специализирующимся на подготовке квалифицированных кадров в области коранических наук, хадисоведения, исламского права, акыды, тасаввуфа, исламской экономики и финансов, международных отношений, иностранных языков и других востребованных на международном уровне направлений, организующим целостную систему непрерывного образования на ступенях среднего специального, высшего, послевузовского образования и повышения квалификации, осуществляющим углубленное изучение и сохранение научного наследия, предоставляющим религиозные и светские знания.

В данной статье рассматриваются направления религиозного образования в Узбекистане и реформы, направленные на повышение его качества, принципы научных исследований, вопросы, связанные с историей и философией ислама, их роль в жизни и развитии общества, а также теоретические и практические задачи, стоящие перед государственными и общественными организациями и религиозными учреждениями, глубоко освоившими современные науки.

Ключевые слова: Управление мусульман Узбекистана, религиозное образование, медресе, учебные заведения.

Gunchakhon B. Alimova,

Independent researcher of Urgench State University
e-mail: alimovag'uncha@gmail.com

DIRECTIONS IN THE SECTOR OF RELIGIOUS EDUCATION IN UZBEKISTAN AND REFORMS AIMED AT IMPROVING ITS QUALITY

ABSTRACT

The International Islamic Academy of Uzbekistan, established by the Office of Muslims of Uzbekistan and the Committee on Religious Affairs under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, is a leading educational and research institution specializing in the training of qualified personnel in the fields of Quranic sciences, hadith, Islamic law, aqeedah, tasawwuf, Islamic economics and finance, international relations, foreign languages, and other internationally needed areas, organizing an integrated system of continuous education at the stages of secondary specialized, higher education, post-higher education, and advanced training, conducting in-depth research and preservation of scientific heritage, and providing religious and secular knowledge.

This article discusses the directions of religious education in Uzbekistan and reforms aimed at improving its quality, the principles of scientific research, issues related to the history and philosophy of Islam, their role in the life and development of society, as well as the theoretical and practical tasks facing state and public organizations and religious institutions that have deeply mastered modern sciences.

Key words: Office of Muslims of Uzbekistan, religious education, madrasah, educational institutions.

Dolzarbligi:

O'tgan yillarda diniy ta'lim sohasi, yo'nalishlari, diniy ta'lim muassasalari faoliyati va ularda ta'lim sifatini oshirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Mustaqillikka qadar diniy – islomiy ta'lim muassalaridan Toshkent islom instituti va "Mir Arab" madrasasigina faoliyat olib borgan. Oktyabr inqilobidan so'ng sovet hokimiyatining O'rta Osiyoda o'rnatilishi keyingi o'n yillik davrda ko'plab masjid va barcha madrasalarning yopilishiga olib keldi. Madaniy sohalarni mafkura izmiga solish din masalalarini ham chetlab o'tmadi. Bolshevik hukmdorlar o'lkada mustabid-imperiyacha tuzumni barpo etish mantig'iga amal qilib va tuzumga to'g'ri kelmaydigan ijtimoiy ong shakllarini, ayniqsa, o'lka xalqlarini yakdil jamoa sifatida birlashtiruvchi islom dini va uning qadriyatlarini siqib chiqarishga intilib, avvalo, mahalliy aholining diniy e'tiqodiga qarshi hujumni avj oldirdilar. Chunki, sovet hokimiyati xalqimizning milliy va diniy ma'naviyatini o'zgartirmasdan turib bu o'lkada uzoq muddat hukmronlik qila olmasligini yaxshi bilar edi. Ammo

din va diniy ulamolarga qarshi qatag'on siyosatini bolsheviklar birdaniga emas, balki asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirib bordilar. Natijada, 1929-yilga kelib O'zbekistonda diniy ta'lim tizimi batamom to'xtatildi. Oradan qariyb **15 yil** o'tib, Ikkinchi jahon urushi davrida sovet tuzumining diniy siyosatida keskin o'zgarish kiritildi, bundan tashqari Ikkinchi jahon urushining eng og'ir paytida sobiq ittifoq aholisining Islom diniga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgara boshladi, **1943-yil**, Ikkinchi jahon urushi davom etayotgan bir paytda, O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi ta'sis etish harakati faollashdi. Mazkur ta'lim muassasalarining ochilishi SSSR XKS qoshidagi diniy ishlar bo'yicha kengash raisi o'rinbosari K.Ya.Pugo faoliyati bilan bog'li. U o'lkada diniy bilim yurtlarining ochilishi va faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni so'rab O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi(1943-yilda vujudga kelgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi tashkiloti)ga murojaat qiladi. Mazkur Diniy boshqarma faoliyati beshta sovet respublikasini qamrab olgan edi. O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlar diniy idorasi tashkil etilganidan keyin, asta-sekinlik bilan diniy idora tashabbusi va xalqning xohish-istaklariga binoan muassasa tarkibiga kiruvchi tashkilotlar ham ochila boshladi. Yangi diniy markazni ta'minlash maqsadida respublikaning yirik shahar va viloyatlarida bittadan masjid ochilishiga ruxsat etildi. Bir necha yillar din-u diyonatdan mahrum etilgan xalq xaroba holga kelib qolgan masjidlarni ta'mirlashga kirishdilar. Sababi, masjidlarning ochilishiga ruxsat etilishining o'ziyoq ular uchun tarixiy voqea edi. Yuqorida qayd etilganidek, K.Ya.Pugo murojaatining mazmunidan shunisi ayon ediki, diniy boshqarma rahbariyati kelgusida ochiladigan diniy ta'lim muassasalarida o'qitish rejasini ishlab chiqishga kirishadi. 1945-yilning mart oyida O'zbekiston SSR XKS qarori asosida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi raisi muftiy Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon boshchiligida tashkiliy qo'mita tuziladi. Ushbu tashkiliy qo'mitaning tavsiyasidan so'ng oradan ikki oy o'tib, yuqorida qayd etilgan respublikaning Toshkent va Buxoro shaharlarida 2 ta diniy bilim yurti ochiladi. A.Salmonov arxiv hujjatlari ma'lumotlariga ko'ra, diniy o'quv yurtlarida quyidagi fanlarni o'qitish rejalashtirilgan edi:

1. Qur'oni karimni o'rganish qoidalari;
2. Qur'on tavsifi;
3. Hadis ilmi;
4. Islom dini tarixi;
5. Fonetika, morfologiya, sintaksis;
6. Muhavvartul arab (arab tili grammatikasi);
7. Hisob (matematika);
8. Geografiya;
9. Husnixat;
10. O'zbek tili grammatikasi;
11. O'zbek adabiyoti [1, – B. 116].

Ta'lim asosan diniy fanlarni qamrab olsa-da, dunyoviy fanlardan ham mustasno emas edi. O'zbekiston Musulmonlar idorasi tasarrufidagi diniy bilim yurtlari diplomlari davlat ta'lim tizimidagi attestatsiya haqidagi hujjat bilan tenglashtirilib, diniy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan kommunal to'lovlar aholidan olinadigan tarifga tenglashtirildi. Qolaversa, bir qator ziyoratgohlar O'zbekiston Musulmonlar idorasi tasarrufiga o'tkazildi [2, – B. 25]

Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Tadqiqotchi Z.E.Xalilova islom dinida ta'lim jarayoniga to'xtalib, Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillardan to mustaqillikkacha bo'lgan davr oralig'ini tadqiqot doirasiga olgan. Tadqiqotda sovet davlatining dinga, diniy ta'limga nisbatan munosabati, bunda diniy ta'lim muassasalarining faoliyati, aynan Mir Arab, Baroqxon madrasalari, madarasa faoliyatida talabalar turmush tarzi bilan bog'liq ijtimoiy hayot, O'zbekiston tarixidagi ilk diniy oliy ta'lim muassasasi – Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti va uning diniy ta'lim tizimidagi o'rni ko'rib chiqilgan. Ahamiyatli tomoni, davr hayotida mavjud va faoliyat olib borgan rasmiy hamda norasmiy ta'lim muassasalari haqida batafsil to'xtalib o'tadi.

Tadqiqotchi M.R.Yusupov tomonidan O'zbekistonda XX asrning 40 – 80-yillarida musulmon diniy tashkilotlari va ulamolar faoliyati o'rganilgan bo'lib, mustaqillik sharoitida islom

dini tarixi va sovet davrida unga bo'lgan munosabat masalasi, manbalar, asosan arxiv hujjatlari asosida tadqiq qilingan. M.R.Yusupov dissertatsiyasida sovet davlatining Ramazon va Qurbon hayitlariga nisbatan salbiy munosabati, madaniy meros obyektlarini, muqaddas qadamjolarini yo'q qilishga urinish holatlari, sovet davlatida masjidlar faoliyati, norasmiy masjidlarga qarshi kurash, diniy tashkilotlarga kadrlar tayyorlash kabi masalalar ko'rib chiqilgan. 1917 – 1950-yillar oralig'ida O'zbekistonda musulmon diniy muassasa va tashkilotlar faoliyati tarixi yuzasidan A.M.Salmonovning tadqiqotlari diqqatga sazovor. A.M.Salmonov tadqiqotida Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va mustahkamalanishi jarayonida islom diniga, dindorlar hamda diniy muassasalarga munosabat masalalari, Turkistonda olib borilgan diniy siyosatning o'ziga xos jihatlari, xudosisizlik uchun kurash, uning sabablari, salbiy oqibatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda sovet hokimiyatining dahriylik kurashi keskin tus olgan yillarda musulmon diniy muassasa va tashkilotlarining ahvoli, 1925 – 1928-yillarda O'zbekistonda yuritilgan diniy siyosat va uning mohiyati, 1940-yillargacha qatag'onga uchragan diniy ulamolar, ularning taqdiri haqida tarixiy ma'lumotlar aks etdi.

Qolaversa, Ikkinchi jahon urushi yillarida din va diniy muassasalarga munosabatda dahriylik siyosatidan chekinish sabablari, urushdan keyingi davrda olib borilgan diniy siyosatdagi muammolar tahlili amalga oshirildi .

Diniy ta'lim (islom dini asosida) masalasi bir qator olimlari tomonidan tadqiqot ostiga olingan. Jumladan, E.Tasar [3, P. 265-302], E.Kazakov [4, – 31 b], B.Rasulov [5,– 32-b], M.Xaydarov[6,– 28-b]larning izlanishlari diqqatga sazovor. Bu davrda sovet davriga oid O'zbekiston tarixi bo'yicha olib borilgan ijtimoiy, siyosiy, ta'lim kabi sohalar doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida dinga munosabat, davlat va jamiyat nuqtai nazarida, albatta yoritib o'tilgan.

Tadqiqot natijalari:

2000-yildan e'tiboran Toshkent islom instituti va o'rta-maxsus islom bilim yurti bitiruvchilarini O'zbekiston musulmonlari idorasi yo'llanmasi bilan rejali ravishda respublikada mavjud masjidlarga ishga taqsimlash joriy qilindi. 2001-yildan boshlab diniy bilim yurtlari talabalariga ham stipendiya berish tartibi yo'lga qo'yildi. 2003-yil 22-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Din sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim ishlarini va faoliyatni takomillashtirishda ijtimoiy ko'mak va imtiyozlar berish to'g'risida”gi Qarori diniy ta'lim tizimida o'ziga xos yangi bir bosqichni boshlab berdi. Ushbu hujjatga muvofiq, O'zbekiston Musulmonlar idorasi tasarrufidagi diniy bilim yurtlari diplomlari davlat ta'lim tizimidagi attestatsiya haqidagi hujjat bilan tenglashtirilib, diniy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan kommunal to'lovlar aholidan olinadigan tarifga tenglashtirildi. Qolaversa, bir qator ziyoratgohlar O'zbekiston Musulmonlar idorasi tasarrufiga o'tkazildi.

O'zbekiston musulmonlari idorasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita muassisligidagi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etilgan bo'lib, akademiya Qur'on ilmlari, hadis, islom huquqi, aqida, tasavvuf, islom iqtisodiyoti va moliyasi, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar va boshqa xalqaro miqyosda ehtiyoj mavjud bo'lgan sohalar bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlashga o'rta maxsus, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish bosqichlarida uzluksiz ta'limning yaxlit tizimini tashkil etishga, ilmiy merosni chuquq tadqiq qilish, asrab-avaylashga, diniy va dunyoviy bilim berishga, ixtisoslashgan yetakchi ta'lim ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi [7,-b. 39].

Ta'lim muassasalari kadrlar tayyorlash tizimida ta'lim beruvchi diniy ta'lim bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash maqsadida Toshkent islom universiteti qoshidagi Malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash fakultetida doimiy asosda bilim va saviyani oshirish ishlarini yo'lga qo'yilganini ta'kidlash zarur. Bu kurslarda islom falsafasi, tafsir, hadishshunoslik, fiqh kabi fanlardan malaka oshirish ishlarini amalga oshirilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2008-yil 23-maydagi “Imom Buxoriy xalqaro markazini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-875 sonli Qarori asosida Samarqandda tashkil etilgan Imom Buxoriy xalqaro markazida tashkil etilgan malaka oshirish kurslarida imom-xatiblar nafaqat diniy bilimlarini

oshirishdi, balki milliy g'oya, mafkura, ma'naviyat, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy bilimlarni ham egallashdi.

Bugungi kunda ham diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish kun tartibidagi asosiy masalalardandir. O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston musulmonlari idorasining O'zbekiston islom akademiyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasini tashkil etish to'g'risidagi taklifi kiritildi.

Xulosa:

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar asosida shunday xulosa qilish o'rinli nazarimizda:

din ta'limdan to'liq ajratilgani holda ta'lim tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Albatta, diniy ta'lim muassasalari bundan mustasno;

din asoslari va dunyoviy fanlar bilan bir qatorda talabalarning biror kasbni o'rganishi tartibi joriy qilindi;

oliy va o'rta maxsus diniy ta'lim muassasalarida ta'lim olish umumiy hamda majburiy o'rta ta'lim olgandan keyingina qabul qilinish tartibi o'rnatildi;

mustaqillik yillarida shartnoma asosida talabalar qabul qilish hisobiga diniy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga, oliy va o'rta maxsus diniy ta'lim muassasalari o'qituvchi va talabalarining oylik maoshi, stipendiyalarini davlat me'yorlariga yaqinlashtirishga erishildi;

diniy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan iqtidorli talabalarni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston musulmonlari idorasining maxsus stipendiyalari joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti "...diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o'zini o'rab turgan dunyoga, o'zi kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo'lmaganligini ham ta'kidlash zarur" [8] ekanligiga e'tibor qarangani edi.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Салмонов А. Религиозная политика советской власти в Узбекистане: вымысел и историческая правда. Монография. - Т.: Тафаккур, 2015. - С. 116. (Salmonov A. The religious policy of the Soviet government in Uzbekistan: fiction and historical reality. Monograph. - Т.: Tafakkur, 2015. - P. 116)

2. Лафасов М. и др. Борьба с религиозным экстремизмом, миссионерством и международным терроризмом: (методическое пособие). Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан. - Т.: Издательство Национальной библиотеки Узбекистана им. А. Навои, 2010. - С. 25. (M.Lafasov et al. The fight against religious extremism, missionary work and international terrorism: (methodological manual). Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan. - Т.: Publishing House of the National Library of Uzbekistan named after A. Navoi, 2010. - P. 25)

3. Тасар Э. Официальные медресе Советского Узбекистана // Журнал экономической и социальной истории Востока. 2016. - Том 59. - С. 265-302 (Tasar E. The Official Madrasas of Soviet Uzbekistan // Journal of the Economic and Social History of the Orient. 2016. - Vol.59. - P. 265-302.)

4. Казаков Э. Политика правительства Хорезмской Республики в отношении исламской веры и служителей культа (1920-1924 гг.). Автореф. дис...канд. ист. наук. - Т., 1996. - 31 с. (Kazakov E. Policy of the Government of the Khorezm Republic in Relationships between the Islamic Faith and Religious Ministers (1920-1924). ABSTRACT of Cand. Sci. (Hist.) Dissertation. - Т., 1996. - 31 p.)

5. Расулов Б. Из истории мусульманских мактабов и медресе Узбекистана (конец XX - 20-годы XIX): Автореф. дис...канд. ист. наук. - Андижан, 1996. - 32 с. (Rasulov B. From the

history of Muslim maktab and madrassas of Uzbekistan (late 20th – 20s of the 19th century): ABSTRACT of Cand. Sci. (History) dissertation. – Andijan, 1996. – 32 p.)

6. Хайдаров М. Централизаторская политика Советской власти в Туркестане и ее последствия (1917-1924 гг.). Автореф. дис...канд. ист. наук. – Т., 1998. – 28 с. (Khaidarov M. Centralizing policy of the Soviet power in Turkestan and its consequences (1917-1924). ABSTRACT of Cand. Sci. (Hist.) Dissertation. – T., 1998. – 28 p.)

7. Духовно-просветительские основы борьбы с экстремизмом и терроризмом [Текст]: учебник / К.А. Шермухамедов, Д.А. Каримов. – Ташкент: Издательство Национального общества философов Узбекистана, 2018. – С. 39. (Spiritual and educational foundations of the fight against extremism and terrorism [Text]: textbook / K.A. Shermukhamedov, J.A. Karimov. – Tashkent: Publishing House of the National Society of Philosophers of Uzbekistan, 2018. – P. 39.)

8. Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века, угрозы безопасности, условия стабильности и гарантии развития. Ташкент 1997. с. 36. (Karimov I.A. Uzbekistan on the threshold of the 21st century, threats to security, conditions for stability and guarantees of development. Tashkent 1997. p. 36.)

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 6

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000